



MA'SUMA AHMEDOVA IJODIDA AYOL RUHIYATI TASVIRI

Ibragimova Zebiniso Yunus qizi

ToshDO'TAU 1- kurs magistranti

Umida Rasulova

Ilmiy rahbar, F.f.d, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli adiba Ma'suma Ahmedovaning ayrim hikoyalaridagi ayol ruhiyati tasviri yoritilishi, ijodkorning ayol psixologiyasini tasvirlashdagi mahorati haqida soʻz yuritiladi. Adiba hikoyalarida ayol qalbidagi tebranishlarni nozik, ta'sirli ifodalab, ularning fitratidagi inja tuyg'ularni obrazli tasvirlagani kuzatiladi. Hikoyalarda ayollar ruhiyati yozuvchi tomonidan mahorat bilan namoyon etiladi.

Kalit soʻzlar: qahramon, ruhiyat, mahorat, syujet, tasvir, konflikt, xarakter, portret, ijtimoiy muammo, obraz, hikoya

Abstract: This article discusses the depiction of the female psyche in some of the stories of the famous writer Masuma Akhmedova, the artist's skill in depicting the female psychology. In writer's stories, it can be observed that she expresses delicately and impressively the vibrations in a woman's heart, and figuratively describes the tender feelings in her nature. In the stories, the female psyche is shown skillfully by the writer.



Key words: hero, mentality, skill, plot, image, conflict, character, portrait, social problem, image, story

Ruhiy tasvir badiiy asar mag‘zini hosil qiladigan tushuncha. Qahramonlar ruhiyati to‘la yoritilmagan asar har qancha qiziqarli syujetga ega bo‘lmasin, kitobxon qalbidan o‘rin ololmaydi. Chunki ichki dunyosi tiniq, ta’sirli ifodalanmasa badiiy obraz darajasiga ko‘tarila olmaydi. Qahramon ruhiyati aks etmagan asar tabiiylik, ta’sirchanlik xislatlaridan uzoq bo‘ladi. Badiiy adabiyotda ruhiyat tasviri juda nozik masala. Chunki har bitta qahramon ichki kechinmalarini tasvirli ifodalash, tuyg‘ularini kitobxonga yetkazib berish, ijodkordan olamni, odamni o‘zgacha idrok etishni, his qilishni taqozo qiladi.

Adibalar kishilar fitratidagi murakkabliklarni tasvirlashda uning hayotidagi taxayyul, tafakkur olamidagi o‘zgarishlarni obrazli ifodalashga harakat qilishadi. Ma’suma Axmedova ham yillar davomida jamiyatdagi voqeliklarini kuzatish, insoniy iztiroblarga yechim izlash jarayonini his etib, asarlariga saralab, tanlab, olib kirib munosabat bildirishga harakat qiladi. Ma’suma Ahmedovanning deyarli barcha hikoyalarida ayol obraziga alohida e’tibor qaratilgan. Ijodkor ayol ruhiyati, ichki kechinmalarini ta’sirli, tabiiy tasvirlaydiki, o‘quvchi misralarni o‘qiyotganda eti jimirlab ketadi. Balki bunga sabab adibamiz o‘z qahramonlarini qalban his etgani, ular kechirgan iztiroblarni bir vaqtlar boshidan kechirganidir. Ma’suma Ahmedovanning mahorati, ruhshunosligi ayol sifatida ayolni bilishi, o‘z fikrlarini jonli misollar bilan ko‘rsata bilganida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ijodkorning yana bir adibalik mahorati shundaki, insonning ichki kechinmalarini tashqi muhitga mohirona bog‘lay oladi.

Eng avvalo, „Billur guldun“ hikoyasidagi obrazlar mohiyatiga e’tibor qaratamiz. Nega aynan hikoyaning nomi „Billur guldun“ deb nomlandi. Guldun inson hayotidagi eng baxtli onlarini o‘zida muhrlaydi. Gul o‘zi aslida yasharish, hayotga intilish, nafosat inson



qalbiga erkinlik olib kiradigan narsa. Guldon nega aynan billurdanligini ta'kidlaydi, chunki u shaffoflik, tiniqlik xususiyatlarini o'zida jo qiladi. Demak , bu billur guldon qahramonimiz umr bahoridagi shunday beg'ubor, baxtli onlarining guvohiga aylangan, ana shu xotiralarini keksalik damlarida ham unga hamroh qilgan buyum. Hikoyaning ilk jumlasiga e'tibor qaratamiz; "Katta imorat pastida bozor qiziydi. Qo'shni kampirlar pastakkina kursichalarda o'tiradilar. Ermak qilib, savdo qiladilar..." [M.Ahmedova, 2023:198] Badiiy adabiyotda bozor hayot, umr, dunyo timsoli. Shu o'rinda adabiyotshunos olim U.Normatov Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romaniga bergan ta'rifida:"... Muallif iborasi bilan aytganda, "bozorning o'zi dunyo", odamlarning ichini ko'rish, tomosha qilish borasida bozordan qulayroq joy yo'q dunyoda. Bozor odamlarning ich-ichini ag'darib ko'z-ko'z qiladigan "ajoyibxona", bunda har bir bandasining fe'lidagi zo'ravonlik, soddalig-u mug'ombirlik, laqmaligu uyatchanlik – hammasi bozorda yo pinhona, yo oshkora ko'zga tashlanadi..."[U.Normatov,2011,3-son] Adibaning "Billur guldon" hikoyasidagi qahramonlar ruhiyati ochib beriladigan makon – bozor.

Keksa bir ayol, marhum eri yoshligida bir sayohatdan olib kelgan chex guldonini sotuvga olib chiqadi. Muhtojlikdan emas , shunchaki uyida ortiqchadek tuyulganidan. Unga bir qiz xaridor bo'ladi ayol bu guldonni tarixini ayta turib uni sotishdan butunlay voz kechadi. Keksa ayol nutqiga e'tibor beraylik:"...Kampir go'yoki guldonni qaytib olmoqchiday, beixtiyor qo'llarini qizga silkidi.

- Guldonni rostdan olmoqchimisani?
- Olmasam so'rarmidim, buvijon, dedi qiz kulib.
- Bu guldon ne-ne baxtli kunlarni ko'rmagan... kampir xayolga toldi. U baxt keltiradi..."[M.Ahmedova,2023:198]

U nimadandir juda qattiq qo'rqqandek , guldonni olib qog'ozga o'rab orqaga qo'yadi. Hikoyadagi bor voqea shundan iborat. Ammo shu voqeaning guldonga bog'liq aytilmagan



faqat qalb bilan his qila oladigan oilaviy xotiralar o‘quvchi xayolida birdan jonlanadi. Shuningdek, hikoyada kekxa bir ayol va yosh qiz tasviri ularning ruhiy olami tasviri mavjud. Ya’ni ularni biri umrining kuzini, biri esa umr bahorini kechirmoqda. Yoshgina qiz nega billur guldonga oshiq bo‘ldi, negaki u hali hayotga, baxtga nainki, kekxa ayol yoshligida his etgan billur guldon guvoh bo‘lgan be’takror onlarga, vafoga, muhabbatga tashna; “..Ana shu eski buyumlar orasida bir guldon uning e’tiborini tortdi. Qiz engashib, qo‘liga guldonni oldi. Billur guldonning nafisligi, bezaklari ko‘zini yayratdi. Asta barmoqlari bilan guldonni chertdi. Guldondan ko‘ngil tubiga borib tegadigan ajib nozik ovoz taraldi...”[M.Ahmedova,2023:198]

Ayolning psixologik holati shu qadar jonliki u o‘quvchiga yuqadi. Darhaqiqat, hayotimizda shunday buyumlar bo‘ladiki ularga nazarimiz tushganda ,o’sha ancha yillar oldingi hislarimiz qaytadan jonlangandek bo‘ladi , yuzimizda tabassum yoki qayg‘u aks etadi.

Adibaning “Toji opaning tuguni” hikoyasida ham ayol ruhiyati ta’sirli tasvir etiladi. Hikoya nomiga to‘xtaladigan bo‘lsak, tugun-jumboq, sir, sinoat ma’nolarini anglatadi. Ya’ni hikoyamiz qahramoni Toji opaning hayotidagi noma’lum jihatlar, sirlar mana shu badiiy detal orqali oshkor etiladi. Bu hikoyada bir nechta ayol obrazlari mavjud: Toji opa, Toji opaning ukasini xotini, Muhiddin akaning ayoli. Hikoyadagi har bir obrazning o‘ziga yarasha xarakteri bor. Toji opa turmushidan ajraladi, ikki farzandi olamdan o‘tadi, ukasining uyida har kuni kelinidan dakki eshitib yashaydi. Ammo hech qachon Allohga shikoyat etmaydi. Toji opaning ruhiyati shu qadar yuksakki, taqdir uni bir emas bir necha bor ayovsiz kaltaklagan bo‘lsada , undagi bardosh ,umid hali so‘lmagan. Uning ichki olamidagi kemptikliklarni ijodkor uning tashqi qiyofasida ham aks ettiradi;□...Boshida eski sholro‘mol, egnida bir necha joyiga yamoq tushgan qora nimdoshgina mursak, oyoqlarida loyga botgan kalish-mahsi. Qo‘ltig‘ida mo‘jazgina tugun...”[M.Ahmedova,2023:160]



Toji opa haqidagi ilk tasvir yuqoridagidek bayon etiladi. Uning ziynatida hech kimni qarg‘amaydigan, ziyon yetkizmaydigan bir fazilat yashirin. Inson psixologiyasida, agar inson biror narsadan ranjisa xafa bo‘ladi, boshiga tashvish tushsa yig‘laydi, yana ham qattiqroq qayg‘uga tushsa oh-u faryod chekadi, bu hol davom etsa ruhiy tushkunlikka tushib qoladi. Bundan keyin ikki yo‘l qoladi qayg‘uning azobidan vafot etadi yoki hayotdan bor umidini uzib, beparvo bo‘lib qoladi. Ammo bu hikoya qahramoni beparvodek tuyulsa ham umidini yo‘qotmagandi. Toji opaning ruhiyati badiiy detal orqali ishora etilgan deb o‘ylayman;

“...Singlim shosha-pisha tugunchani ochdi. Tugun ichida oyimdoka ro‘mol, ko‘ylak, tagida esa, jiyaklari uringan bolado‘ppi, do‘ppi tepasiga bir tutam ukpar chatib qo‘yilgan. Yana meva sharbatidanmi, so‘lakdanmi, qotib dog‘- dug‘ bo‘lib qolgan bolalar ko‘ylakchasi, keyin sarg‘ayib, rangi unniqib ketgan ishtoncha. Toji opaning hech kimga tutqazmay, ishonmay e‘zozlagan bor boyligi shugina ekan...”[M.Ahmedova,2023:163]

Bu badiiy detal Toji opa obrazi tog‘risida bor haqiqatlarni ochgandek go‘yo. Uni zohiriy dunyoga bog‘lab turgan birgina narsa tugunchadagi boyligi, uning yorqin xotirasi, qalbiga ekinlik beradigan nurning bir jilvasi. Bu hikoya ayol kechinmalarining go‘zal namunasi. Toji opaning ichi dard-u alamga to‘la. Kunduzlari kulsa-da tunlari yostiqlarini ho‘l qilib yig‘lab chiqadi. Axir unda nima gunoh bor edi. Uning ham boshqa o‘zbek ayollaridan qayeri kam edi. Axir u ham turmushida baxtli yashashga, farzandlarini tarbiya qilishga, farzandlarining baxt-u saodatini ko‘rishga, bir uyning bekasi bo‘lishga haqqi bor edi. Uning ham orzu-istaklari bor edi. Ammo... Afsus shum taqdir Toji opani barchasidan mahrum etdi, orzulari armonga aylandi. Hikoyamizdagi ikkinchi ayol obrazi bu Muhiddin akaning ayoli, bu obraz nomi keltirilmaydi. Bu obraz ruhiyatida qanaqadir ko‘pchilik o‘zbek ayollarida bo‘ladigan kuyunchaklik va samimiyatni ko‘rishimiz mumkin:”...Otasi, Xudoning o‘zi kechirsin-u, ba’zida dunyoning ishlariga xafa bo‘lib ketaman-da. Yo, Yaratgan egam, bandangning qilayotgan ishlariga bir qara, degim keladi. Mahmud o‘lgur



haydadi, Toji opaga shuncha qilgan ro‘zg‘oridan nina ham bermadi. Har biri to‘qliday ikki o‘g‘il uyoqdan-buyoqqa sarson, xor-zor bo‘lib, kasalga chalinib, o‘lib ketdi. Bu bechora sarson-u sargardon, yurak-bag‘ri kuyib, ado bo‘ldi...”[M.Ahmedova,2023:162] mana shu so'zlar orqali bu qahramonning ichki olami yoritib beriladi.

Bu hikoya ayol kechinmalari bilan birga milliy mentalitetimizni, mehmondo‘stligimizni ham ochib bergan durdona asar. Hikoyani o‘qigan kitobxon hikoya qahramoniga o‘zini shu qadar yaqin his etadiki, u yig‘laganda beixtiyor ko‘ziga yosh keladi.

Ma’suma Ahmedovaning yana bir "Hamdardlik" hikoyasi mohiyatiga e’tibor qaratamiz. Hikoya nomi fors-tojikcha yasama so‘z bo‘lib, dardi, qayg‘usi, iztirobi bir xil ma’nolari anglashiladi. Bu hikoyada bugungi dolzarb mavzulardan biri ajrim ko‘zga tashlanadi. Bunda deyarli bir xil vaziyatdagi bir xil dardni his etayotgan ikki ayol ruhiyati ochib beriladi. Birinchi qahramonimiz oliy ma’lumotli shifokor Habiba Komilovna . U turmush o‘rtog‘ining xiyonatini anchadan beri sezib yurganligi bunga ortiq chiday olmasligini, bugun aniq u bilan ajrim masalasida gaplashib olish fikrida ekanligini ta’kidlaydi. Ikkinchi qahramonimiz esa uning bemori □ Internat o‘qituvchisi. Nega ijodkorimiz shifokor va murabbiy obrazlarini tanladi. Chunki ularning vazifasi nisbatan o‘xshashdir. Shifokor inson vujudi salomatligi uning barkamolligi uchun mas’ul bo‘lsa, murabbiy, inson ichki olami ruhiyati, ongi va qalb barkamolligiga mas’uldir. Ijodkor bu ikki ayol ruhiyatini mahorat bilan ochib beradi. Ikkalasida ham vaziyat bir xil xiyonat . Ammo birinchisi uzil-kesil ajrashmoqchi, ikkinchisi esa oilasini saqlab qolish uchun hammasiga tayyor. Shifokor huzuriga kelgan ayolga o‘zining fikrini uqtirishga harakat qiladi;

“... Bolani uchta qilib ko‘ngli yarimlarni ko‘paytirib nima qilasiz? Undan ko‘ra eringiz bilan ochiq gaplashing, o‘ziga qo‘yib bering. Hamon sizdan o‘sha xotinni afzal ko‘rgan ekan, ketaversin, oyog‘iga yopishmang.



Ammo bunga internat tarbiyachisi shunday javob beradi;

- Unday qilolmayman, - dedi oradan birmuncha vaqt o'tgach, juvon yerga qarab. Keyin boshini ko'tarib, doktorga tik qaradi: Gapingiz to'g'ri, ayol kishining o'z g'ururi, ori bo'lishi kerak. Menga qolsa, uni bir daqiqa ham ushlab turmasdim. Lekin bola xalqi hech qachon sizning ko'nglingizdagini tushunolmaydi. O'zim bolalar bilan ishlayman, internatda tarbiyachiman. Bilasizmi, bolalarning o'z haqiqati bor, u qiziqqandan-qiziqib, juvonning gaplariga quloq tutdi. Ular hamma narsaga, qiyinchiliklarga, kasalliklarga chidashi mumkin, ammo oilaning buzilib ketganiga chidolmaydi. Ayniqsa, bolalar otasi yoki onasi tashlab ketganini qabul qilolmaydi. Ko'ngillari sinadi, alamzada bo'lib qoladi. Xudo ko'rsatmasin, bu voqea ularning taqdiriga ham ta'sir etmay qolmaydi..." [M.Ahmedova,2023:224] O'qituvchining fikri shifokor ayol ruhiyatiga shu qadar ta'sir etadiki, u bir zumda boshqa insonga aylangandek bo'ladi. U bular haqida o'ylab ham ko'rmaganligini ijodkor tabiiy, jonli tasvirlaydi.

Darhaqiqat, xiyonat bu ayol ruhiyati, or-nomusi ko'tara olmaydigan holat ammo o'rtadagi kichik qalb egalarini unutib bo'lmaydi. Ayol go'zallik, sabr, or-nomus egasi bo'lishi bilan birga u dunyodagi eng mas'uliyatli kasb egasi ya'ni onadir. Oilaning asosini saqlab turadigan narsa ishonch, sadoqat va ota-onaning bir-biriga bo'lgan mehri, bu kelajak egalari bolalar ruhiyatiga juda katta ta'sir etadi. Bolalarga biror so'z aytishdan oldin inson ayniqsa ayol o'ziga to'g'ri bo'lishi, vafodor va omonatdor bo'lishi zarur. U kelajak avlodning ong-u shuuridagi o'z o'rnini aslo unutmasligi lozim. Eng muhimi ayolda oilaga, farzandga bo'lgan mehr, oqibat tuyg'usining kuchliligi hattoki xiyonatni kechirishiga ham yo'l beradi. Hikoyada mana shu narsa ko'rsatib berilyapti. Taroziining bir pallasida xiyonatkor er, ikkinchi pallasida otasiz katta bo'lishi mumkin bo'lgan farzandlar qismati turibdi. Ijodkor bu hikoyasi orqali jamiyatimizdagi ayrim ayollarda bor kemtikliklarni yo'qotish, oila bu muhtasham qo'rg'onligini yana bir bor eslatishni ko'zda tutgan. Ayolning



bardoshi barchasini yengishga qodir, u sabri bilan go‘zallik yarata olishini ijodkorimiz mahorat bilan ko‘rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, Ma’suma Ahmedovanning ijodida o‘zgacha bir ruh hukmron. Yozuvchi qahramonlarning ruhiy olamini badiiy psixologizm bilan tasvirlagan, ularning harakter xususiyatlari, his-tuyg‘ulari va kechinmalarini real va ishonarli ifodalagan. Ijodkorning obrazlar tanlash mahorati, ularning o‘zaro bir-biriga aloqadorligi adabiyotga yanada yangicha nuqtai nazar bilan qarashga, tahlil qilishga undaydi. Ayniqsa, yozuvchining hikoyalari o‘zining badiiy-estetik yetukligi bilan ajralib turadi. Hayotning eng muhim, muammoli vaziyatlarini, o‘tmishning inson ruhiyatiga ta’sir qilgan momentlarini kichik epik janrga, hikoyaga badiiy akslantirishda Ma’suma Ahmedovanning mahorati ko‘zga tashlangan. Yozuvchining har bir hikoyasi badiiy mustahkamligi bilan adabiyotshunoslar e’tiborini ham o‘ziga jalb etdi. Undagi tasvir uslubi, badiiy tilning betakrorligi, obrazlar yorqinligi yozuvchi mahoratidan darak bergan. Yozuvchining hikoyalaridagi obrazlar o‘zining yorqin va qiziqarli xarakter xususiyatlari bilan o‘quvchida ajoyib taassurot qoldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova M. Billur guldon. – Toshkent, "Adabiyot", 2023.
2. D. Quronov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: "Akademnashr", 2013.
3. Karim B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G‘.G‘ulom nashriyoti NMIU, 2016.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent., 2004.
5. Rahimov A. O‘zbek romani poetikasi, 1993.
6. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi, Toshkent., 2004.
7. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. □ Toshkent., 2018.
8. Normatov U. Badiiyat ko‘zgusi – millat taqdiri. "Sharq yulduzi" 2011. 3-son